



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19955582>

Qashqadaryo vohasi san'at fidoiylari: 1925-yildan hozirgacha

Azizov Nuriddin Malikovich –
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrasida dotsent v.b.,
E-mail: nuriddin@gmail.com
Tel: + 998 91 472-40-43

***Annotatsiya.** Ushbu maqola Qashqadaryo vohasi san'at fidoiylarining 1925-yildan to hozirgi kungacha bo'lgan faoliyatini qamrab oladi. Tadqiqotda voha san'at hayotining to'rtta asosiy davri – sovet madaniyati qurilishi davri (1925–1941), Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi tiklash davri (1941–1960), sovet davrining yetuk san'at bosqichi (1960–1991) hamda milliy istiqlol va qayta tiklanish davri (1991-yildan hozirgacha) – tahlil etilgan. Maqolada baxshichilik san'ati, she'riyat, teatr va musiqachilik yo'nalishlaridagi yirik san'atkorlar – Ergash Jumanbulbul o'g'li, Polkan shoir, Qodir baxshi Rahimov va Abdulla Oripov kabilarning hayoti va ijodiga alohida e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** Qashqadaryo vohasi, san'at fidoiylari, baxshichilik, dostonchilik, she'riyat, teatr, sovet davri, milliy istiqlol, madaniy meros.*

Деятели искусства Капкадарьинского оазиса: с 1925 года по настоящее время

***Аннотация.** Данная статья охватывает деятельность преданных искусству деятелей Капкадарьинского оазиса с 1925 года по настоящее время. В исследовании анализируются четыре основных периода художественной жизни региона: период становления советской культуры (1925–1941), период Второй мировой войны и послевоенного восстановления (1941–1960), зрелый этап советского искусства (1960–1991), а также период национальной независимости и возрождения (с 1991 года по настоящее время). В статье особое внимание уделено жизни и творчеству выдающихся деятелей искусства в области бахшийского искусства, поэзии, театра и музыки — таких как Эргаш Жуманбулбул оглы, Полкан шoir, Кады́р бахши Рахимов и Абдулла Орипов.*

Ключевые слова: *Кашкадарьинский оазис, деятели искусства, бахшийское искусство, дастанное творчество, поэзия, театр, советский период, национальная независимость, культурное наследие.*

Artists of the Kashkadarya oasis: from 1925 to the present

Annotation. *This article covers the activities of devoted artists of the Qashqadaryo oasis from 1925 to the present day. The study analyzes four main periods of the region's artistic life: the period of Soviet cultural formation (1925–1941), the period of World War II and post-war reconstruction (1941–1960), the mature stage of Soviet art (1960–1991), and the period of national independence and revival (from 1991 to the present). The article pays special attention to the lives and works of prominent artists in the fields of epic storytelling, poetry, theater, and music – such as Ergash Jumanbulbul oqli, Polkan shoir, Qodir baxshi Rahimov, and Abdulla Oripov.*

Keywords: *Qashqadaryo oasis, devoted artists, epic storytelling (bakhshi art), dastan performance, poetry, theater, Soviet period, national independence, cultural heritage.*

KIRISH

Qashqadaryo vohasi – O'rta Osiyoning ko'hna va serqatlam madaniy mintaqalaridan biri. Qadimda Naxshab va Kesh deb atalgan bu zamin asrlar davomida ilm-fan, madaniyat va san'atning muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan. Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oniyning "Kitob al-Ansob" asarida VIII–XII asrlarda yashab o'tgan 180 ga yaqin nasaflik olim va shoir nomlari qayd etilganligi bu zaminning ma'naviy salohiyatidan dalolat beradi. Amir Temur va temuriylar davri bu voha uchun alohida o'rin tutadi: Shahrisabz – buyuk sohibqironning tug'ilgan shahri sifatida ilm va san'atning tayanch nuqtasiga aylangan, Kesh esa "Qubbat ul-ilm val-adab" – ilm va adabiyot gumbazi nomiga sazovor bo'lgan. Bu tarixiy meros keyingi asrlarda ham voha san'atining kuchli poydevorini tashkil etdi.

XX asrning boshlarida, aniqrog'i 1924-yilning 1-noyabrida Qashqadaryo viloyati O'zbekiston SSR tarkibida tashkil topishi bilan voha madaniy hayotida yangi – nihoyatda ziddiyatli va murakkab bir davr boshlandi. Sovet hokimiyatining madaniyat sohasidagi siyosati bir tomondan milliy an'analarni yo'q qilishga urinsa, ikkinchi tomondan iste'dodli san'atkorlarni yuzaga chiqarib, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun tashkiliy shart-sharoitlar yaratdi. Ushbu maqolada 1925-yildan hozirgacha bo'lgan davrda Qashqadaryo vohasida san'at fidoiyligi, ulardagi ijodiy izlanishlar va voha madaniy hayotiga qo'shilgan hissalar ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etiladi.

1924–1925-yillardagi milliy-hududiy chegaralanish O'rta Osiyoda yangi siyosiy xarita chizdi. Qashqadaryo viloyati O'zbekiston SSRning dastlabki yettita viloyatidan biri sifatida tashkil topdi. Sovet hukumati bir tomondan an'anaviy madaniyatga qarshi kurash olib bordi masjidlar yopildi, diniy va milliy an'analar ta'qib ostiga olindi boshqa tomondan esa o'z mafkurasini targ'ib qilish uchun madaniyat muassasalari, teatrlar, matbuot organlari tuzdi. Bu o'zaro qarama-qarshi tendensiyalar voha san'at fidoiylarining faoliyatini belgilab berdi. Ayniqsa, baxshichilik san'ati bu davrda o'ziga xos ikki yuzlamalik vaziyatga tushdi. Bir tomondan baxshilar sovet mafkurasiga zid bo'lgan diniy va milliy ruhdagi dostonlardan voz kechishga majbur bo'ldi, ikkinchi tomondan esa sovet etnoqrafiya ekspeditsiyalari ularning repertuarini ilk bor ilmiy yo'l bilan yozib oldi. Bu paradoksal (Paradoks -Qadimgi yunoncha

kutilmagan g'alati) holat, pirovardida, qashqadaryolik baxshilar merosining kelajak avlodlarga yetib kelishiga ko'maklashdi.

Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik maktabi o'zbek epik an'anasining mustaqil va o'ziga xos tarmog'ini ifodalaydi. Bu maktab vakillari qadimdan "baxshi" yoki "shoir" deb ataladilar; ularning san'atida so'z ustaligi, qo'shiqchilik va do'mbira navozandasi qobiliyatlari o'zaro birlashgan. Ayniqsa, bo'g'iq (ichki) ovozda do'mbira jo'rligida kuylash uslubi ushbu maktabning o'ziga xos belgisi hisoblanadi.

Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868–1937) Qo'rg'on dostonchilik maktabining peshqadam namoyandasi bo'lib, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidan chiqqan. U "Alpomish", "Yakka Ahmad", "Oysuluv", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'lining tug'ilishi" singari o'nlab yirik dostonlarni kuylagan. Ergash Jumanbulbulning ijodiy faoliyati XX asrning 20-30-yillaridagi sovet etnoqrafiya ekspeditsiyalari davomida ilk bor yozib olingan. Bu shoir nafaqat ijrochi, balki improvizator (Ruminiya tilidan olingan - etkazib beruvchi) ham edi — uning kuylash uslubi keyingi avlod baxshilari uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Po'ltan shoir (1874–1941) favqulodda xotira qudratiga ega bo'lgan baxshi sifatida o'zbek adabiyoti tarixiga kirgan. U yetmishdan ortiq dostonni yod bilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Har bir dostonning 2-3 ming satrdan tortib 10-20 ming misragacha she'rni o'z ichiga olganligi hisobga olinsa, Po'ltan shoirning aqliy va ijodiy salohiyatining ulkanligi yanada yorqinroq ko'zga tashlanadi. Uning ijodi ham sovet davrining dastlabki yillarida yozib olinib saqlanib qolindi.

Qamay dostonchilik markazi – Qashqadaryo vohasidagi "Qamay" qishlog'ida shakllangan bu maktab Dehqonobod va G'uzor tumanlari atrofida yashovchi oltmishga yaqin baxshini birlashtirgan. Mardanqul Avliyoqul o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li kabi san'atkorlar shu maktab nomoyondalari bo'lib, ulardan bir qancha dostonlar yozib olingan. Bu maktab vakillari nafaqat doston kuylash, balki termachilik va do'mbirasozlik bo'yicha ham mashhur bo'lishgan.

Voha she'riy an'anasi ham bu davrda o'ziga xos yo'nalishda rivojlandi. Sovet davrining ilk yillarida jadidchilik ruhida she'riyat bilan proletariyaga bag'ishlangan «yangi san'at» o'rtasida keskin ziddiyat yuzaga keldi. Ko'plab mahalliy shoirlar mafkuraviy bosim ostida yaratdi; biroq ular o'z she'rlarining ostki qatlamida milliy ruhni, vatan sevgisini, xalq og'riqlarini saqlab qolishga harakat qildi. 1935-yildan chiqqan boshlagan "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi voha adabiy hayotida muhim rol o'ynadi: u mahalliy shoirlar asarlarini chop etib, ularning kitobxon bilan muloqotiga ko'maklashdi.

Ikkinchi jahon urushi (1941–1945) yillari Qashqadaryo vohasining madaniy hayotiga ham o'zining keskin izini qoldirdi. Minglab yigitlar frontga ketdi. Voha san'atkorlari ikki vazifani bajarishga majbur bo'ldi: bir tomondan urushdan qaytmagan ota va aka-ukalarning dardini yupatish, ikkinchi tomondan esa front ruhini ko'tarish. Bu davrda voha baxshilari, shoirlari va musiqachilari frontchilar uchun maxsus she'rlar yozdi, marosimlar o'tkazdi va ijrochilik dasturlari tayyorladi.

Urush davri san'at fidoiylari orasida alohida o'rin tutadigan jihat shundaki, ular mahalliy va milliy madaniyatni «zamonaviy» sovet san'ati bilan uyg'unlashtirishning yangi usullarini izladi. Bu davr Qashqadaryo vohasida teatr san'atining ilk urug'larini ham ekdi: frontchilar faoliyati uchun tashkil etilgan madaniy brigadalar keyinchalik viloyat teatrlarining shakllanishiga asos bo'ldi. 1943-yilda Qashqadaryo viloyati qayta tashkil topgandan so'ng viloyat madaniy muassasalari ham yangi tus oldi. Kutubxonalar, klub muassasalari va musiqa maktablari faoliyati tiklandi. Bu davrda baxshichilik san'ati o'zining yangi ko'tarilish bosqichiga kirdi. Baxshi-shoirlar kolxoz va mahalla yig'inlarida, to'ylarda va bayram tadbirlarida o'z san'atlarini namoyish etdi. Voha madaniy hayotida dostonchilik an'analarning uzluksiz davom etishi san'at merosining keyingi avlodlarga yetib borishida hal qiluvchi rol o'ynadi. 1960-yillardan boshlab Qashqadaryo baxshichilik san'atida an'analarning muayyanlashuvi va kitobiylikka intilish kuchaydi. Bu jarayonda Qodir baxshi

Rahimovning xizmatlari beqiyos bo'ldi. U yetuk doston ijrochisi va iste'dodli xalq baxshisi sifatida o'z davrining eng nufuzli san'atkorlaridan biri hisoblanardi. Ayniqsa, Qodir baxshining «Alpomish» dostonini kuylash uslubi alohida shuhrat qozondi: u Alpomishning vataniga qaytish sahnalarini shunchalar jonli va to'lib-toshib kuylardiki, tinglovchilarning o'zi ham vatanparvarlik tuyg'ularini jonli his etardi. Qodir baxshi Rahimov o'z atrofida bir qancha shogirdlar tarbiyalab yetkalib, baxshichilik an'anasining uzluksizligini ta'minladi. Uning faoliyati Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik maktabining mustahkamlanishida muhim bosqich bo'lib qoldi.

Qashqadaryo vohasining XX asrdagi eng buyuk farzandlaridan biri, shubhasiz, Abdulla Oripovdir (1941–2016). U 1941-yilning 21-martida viloyatning Koson tumani, Neko'z qishlog'ida tavallud topdi. Maktabni oltin medal bilan bitirgan Oripov Toshkent Milliy universitetining jurnalistika bo'limini a'lo baholar bilan tamomladi.

Oripov 1960-yillarda o'zbek she'riyatiga kirib keldi. Sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabadaning elchisi sifatida qabul qilingan bu shoir dastlabki she'rlaridan boshlab milliy she'riyatda yangicha badiiy tafakkurni qaror toptirishga intildi. 1965-yilda chiqqan birinchi she'rlar to'plami «Mitti yulduz» adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Undan keyingi «Ko'zlarim yo'lingda» (1967), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1971), «O'zbekiston» va «Qasida» (1972), «Xotiro» (1974) to'plamlari uning ijodiy daxlsizligini mustahkamladi. A.Oripov she'riyatida ikki muhim jihat birlashgan edi: chuqur falsafiylik va qoshqadaryolik oddiy mehnatkash xalqning turmushi, tili, ruhiyatiga yaqinlik. U «Tilla baliqcha», «Qo'riqxon», «Genetika», «Olomonga» singari she'rlarida hayot muammolarini keskin va bevosita ko'tardi. Bu asarlar sovet davrining mafkuraviy bosimiga qaramay, insonning ichki erkinligini va milliy o'zlikni qo'riqladi. Abdulla Oripov mohir tarjimon sifatida ham jahon adabiyotiga katta hissa qo'shdi. U Dantening «Ilohiy komediya» asarini, Pushkin, Shevchenko, Nekrasov, Hamzatov, Quliyev kabi shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. O'z navbatida, uning she'rlari rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbayjon tillariga o'girildi.

1960–1991-yillar Qashqadaryo viloyat teatrining shakllanish va kamolot davri hisoblanadi. Bu davrda viloyat musiqali drama teatri qoshida professional ijodiy jamoa tashkil topdi. Teatr repertuariga o'zbek klassik va zamonaviy dramaturgiyasi, jahon adabiyoti namunalari kiritildi. Rejissor B. Nazarov boshchiligidagi ijodiy jamoa Abdurauf Fitratning «Abulfayzxon» dramasini sahnaga qo'yishi «madaniy hayotimizda hodisa» sifatida baholandi. Bu spektakl nafaqat sahna san'atini rivojlantirdi, balki o'zbek tarixiy dramaturgiyasini tiklashda ham muhim o'rin tutdi. O'zbekistondagi barcha viloyatlar, tumanlarda ansambllar, folklof jamoalari tuzila boshladi jumladan Qashqadaryo viloyati o'nlab ansambllar faoliyat ko'rsata boshladi Qarshi tumanida «Cho'li chamani», Qarsitroyga qarashli «Marxabo» Shahrisabzda shahrida «Shodyona», Gyzor tumanida «Nargiz», Chiroqchi tumanida «Chiroqchi chiroqlari» kabi ansambllar Respublikamiz xududlariga, chet el mamlakatlarida gastrollarda bo'lishdi.

O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishishi bilan Qashqadaryo vohasining madaniy hayotida ham tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Asrlar davomida sovet mafkurasi tomonidan cheklab kelingan milliy an'analar baxshichilik, xalq she'riyati, milliy musiqa qayta tiklanish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ayniqsa, diniy va milliy ruhidagi dostonlarning bemalol ijro etilishi, Amir Temur va o'zbek davlatchiligi tarixi haqidagi asarlarning sahna va nashriyot hayotiga keng kirib kelishi bularning barchasi yangi davrning belgisi bo'ldi.

Qashqadaryo vohasidagi «Eski masjid» teatr-studiyasi bu davrda milliy va xalqaro madaniy munosabatlarda faol ishtirok etdi. 1993-yilda Toshkentda o'tkazilgan «Teatr: Sharq va G'arb» xalqaro festivalida Qashqadaryo teatrchilari munosib qatnashdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyat musiqali drama va komediya teatrida sohibqiron Amir Temur hayotiga bag'ishlangan tarixiy drama sahnaga qo'yildi.

Abdulla Oripov mustaqillik yillarida o'z ijodiy va jamoat faoliyatining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. U O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi sifatida milliy adabiyotni boshqarish bilan bir qatorda keng ijodiy faoliyatini davom ettirdi. Shoirning «Haj daftari» (1992) turkumiga kirgan asarlarida ruhiy va ma'naviy qadriyatlarni yangilash ishtiyoqi yaqqol ko'zga tashlanadi. Abdulla Oripovning O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matni muallifi ekanligi uning milliy san'at tarixidagi o'rnini alohida belgilaydi. 1992-yilning 10-dekabrda O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan ushbu madhiya matnida shoir vatan sevgisi, erkinlik va buyuk kelajakka ishonch ruhini teran badiiy tarzda ifodaladi. 1998-yilda unga «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilishi xalqning o'z fidoyisiga ko'rsatgan oliy e'tirofi edi. Abdulla Oripov 2016-yilning 5-noyabrda Xyuston shahrida 75 yoshida hayotdan ko'z yumdi. Uning nomi bilan Qashqadaryo viloyati markazida ijod maktabi ochildi. Hozirgi kunda Qashqadaryo vohasi san'at fidoiyligi an'analarini davom ettirayotgan yosh avlod faol ijod qilmoqda. Viloyat musiqali drama teatri, qo'g'irchoq teatri, «Eski masjid» teatr-studiyasi, «O'zbeknavo» va «O'zbekraqs» viloyat bo'limlari, ashula va raqs ansambllari faoliyat olib bormoqda. 18 ta bolalar musiqa maktabi navbatdagi avlodga musiqa ta'limini bermoqda. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik an'analari UNESCO tomonidan e'tiborga loyiq ko'rilgan nomoddiy madaniy meros sifatida tadqiq etilmoqda.

Adabiy hayotda ham yutuqlar salmoqli: Poyon Ravshanovning qadimiy Naxshab va Keshning tarixiga oid to'rt jildi, Normurod Narzullayevning «Alyor», Ikrom Otamurodning «Tavr», Habib Abdunazarning «Anjir guli» kabi asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotining muhim sahifalarini tashkil etadi. O'zbekiston ijodiy uyushmalarining yozuvchilar, rassomlar, me'morlar, jurnalistlar viloyat sho'balari barqaror faoliyat ko'rsatmoqda. Qashqadaryo vohasi san'at fidoiylarining 1925-yildan hozirgacha davom etgan faoliyatini tahlil qilganda uchta asosiy qonuniyat ko'zga tashlanadi.

Birinchidan, an'ana va zamonaviylikning uyg'unligi. Voha baxshichilik san'ati asrlar davomida o'zining tashkiliy shaklini — do'mbirali baxshi an'anasini — saqlab keldi. Sovet davrida ham, mustaqillik yillarida ham bu an'ana uzilmadi. Ergash Jumanbulbul o'g'ildan Qodir baxshi Rahimovgacha bo'lgan yo'lda bir necha avlod baxshilari an'anani o'z shogirdlariga topshirdi. Abdulla Oripovning she'riyatida ham xuddi shunday holat kuzatiladi: u milliy klassik poetika an'anasiga suyangan holda zamonaviy badiiy tafakkurni qo'lladi.

Ikkinchidan, siyosiy bosim sharoitida ijodiy fidoyilik. Sovet davrining qatag'on mashinasi ko'plab iste'dodli san'atkorlarni qurbon qildi. Biroq Qashqadaryo vohasining san'at fidoiylari, ko'pincha og'ir siyosiy vaziyatda ham, o'z milliy ruhlarini asarlarining ostki qatlamlarida saqlashga muvaffaq bo'ldilar. Bu fidoyilik san'at tarixining sahifalarida insoniy qahrlik va matonat sifatida abadiy qoladi.

Uchinchidan, voha san'ati xalqaro miqyosdagi ahamiyati. Abdulla Oripovning Jahon intellektual mulk tashkiloti oltin medali bilan taqdirlanganligi, uning asarlarining xorijiy tillarga tarjima etilganligi, «Eski masjid» teatr-studiyasining xalqaro festivallarda qatnashganligi bularning barchasi voha san'atining mahalliy chegaradan chiqib jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini ko'rsatadi. Qashqadaryo vohasi 1925-yildan hozirgacha bo'lgan bir asrlik tarixi davomida o'z san'at fidoiylarini yetishtirdi. Ergash Jumanbulbul o'g'li va Po'lkan shoir kabi baxshilar xalq eposi xazinasini asradi; Qodir baxshi Rahimov baxshichilik an'anasini yangi avlodlarga topshirdi; Abdulla Oripov o'zbek she'riyatini jahon miqyosiga olib chiqdi; viloyat teatri o'zbek dramaturgiyasini yangi asarlar bilan boyitdi. Ushbu san'at fidoiylarining umumiy xususiyati shundaki, ular hech qanday siyosiy va ijtimoiy qiyinchiliklarga qaramay, san'atga bo'lgan muhabbatini va xalqiga xizmat qilish ishtiyoqini umr bo'yi saqlab qoldi. Aynan shu fidoyilik tufayli Qashqadaryo vohasining madaniy merosi hozirgi kunga sog'lom holda yetib keldi va keyingi avlodlarga o'tkazilmoqda. Voha san'at tarixi o'zbekiston milliy madaniyatining ajralmas qismi sifatida

yanada chuqur ilmiy tadqiqotlarni, arxiv materiallarini yig'ish va tartibga solishni, san'atkorlar nomlarini abadiylashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni talab qiladi.

NATIJALAR

Qashqadaryo vohasi san'at fidoiylarining 1925-yildan to hozirgi kungacha bo'lgan faoliyatini qamrab oladi. Tadqiqotda voha san'at hayotining to'rtta asosiy davri sovet madaniyati qurilishi davri (1925–1941), Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi tiklash davri (1941–1960), sovet davrining yetuk san'at bosqichi (1960–1991) hamda milliy istiqlol va qayta tiklanish davri (1991-yildan hozirgacha) tahlil etilgan. Maqolada baxshichilik san'ati, she'riyat, teatr va musiqachilik yo'nalishlaridagi yirik san'atkorlar Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'ltan shoir, Qodir baxshi Rahimov va Abdulla Oripov kabilarning hayoti va ijodiga alohida e'tibor qaratilgan.

Bo'lajak yosh ovlodni musiqa fani o'qituvchilarining qobiliyatlari raqamli texnologiyalar yordamida samarali rivojlantirilishi mumkin. Nazariy tahlil asosida, kreativlikning shakllanishida pedagogik metodikalar bilan birga interaktiv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim omil ekanligi aniqlangan. Empirik tadqiqotlar natijalari o'qituvchilarning ijodiy fikrlash darajasi va muammolarni innovatsion usullarda hal qilish qobiliyatida sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatadi.

So'rovnomalar va testlar orqali olingan ma'lumotlar, raqamli resurslardan foydalanganda o'qituvchilarning qiziqishi va ta'lim jarayoniga faolligi oshishini tasdiqlaydi. Mini-pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar va masofaviy o'quv platformalari o'qituvchilarning ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Eksperiment davomida qatnashgan o'qituvchilar yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda yuqori motivatsiya namoyon etgan va ta'lim jarayonida ijodiy metodlarni faol qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan. Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish faqat texnik imkoniyat bilan cheklanmasdan, o'qituvchining pedagogik mahorati, kreativ yondashuvi va innovatsion fikrlashi bilan mustahkamlanadi.

Natijalar umumlashtirilganda, raqamli texnologiyalar pedagogik jarayonda kreativlikni shakllantirishda nafaqat vosita, balki strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. Bu esa Musiqiy ta'lim fani o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash uchun yangi metodik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Raqamli texnologiyalar bo'lajak Musiqiy ta'lim fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Nazariy va empirik tahlillar o'qituvchilarning ijodiy fikrlash darajasi, muammolarni innovatsion usullarda hal qilish qobiliyati va ta'lim jarayonidagi faolligi raqamli resurslar yordamida sezilarli darajada oshishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, kreativlikni shakllantirish faqat texnologik vositalardan foydalanish bilan cheklanmay, pedagogik mahorat, innovatsion yondashuv va shaxsiy ijodiy salohiyat bilan mustahkamlanishi aniqlangan. Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, musiqa fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalarni muntazam qo'llash va ularni ijodiy faoliyatga jalb qilish bo'yicha metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish;

ikkinchidan, interaktiv dasturlar, virtual laboratoriyalar va onlayn platformalardan foydalanish orqali o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish;

uchinchidan, o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini baholash va rivojlantirish bo'yicha testlar va monitoring tizimlarini joriy etish;

to'rtinchidan, o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llashga rag'batlantirish.

Ushbu tavsiyalarni amaliyotga tadbiq etish texnologiya fani o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va innovatsion pedagogik jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zME, 2000–2005. – 12 jild.
2. Qashqadaryo viloyati // Vikipediya – erkin ensiklopediya. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Qashqadaryo_viloyati
3. Qurbonov F.F. Qashqadaryo–Surxondaryo baxshi-doston ijrochiligi an'analari va ijro uslublari // Science and Innovation International Scientific Journal. – 2022. – Vol. 1, № 8. – B. 1–12.
4. Surxondaryo–Qashqadaryo musiqa uslubi // Vikipediya. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo-Qashqadaryo_musiqa_uslubi
5. Abdulla Oripov (poet) // Wikipedia. – URL: [https://en.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Oripov_\(poet\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Oripov_(poet))
6. Tursunboyev S. Teatr tarixi. – Toshkent, 2010. – URL: <https://n.ziyouz.com/books/>
7. Doniyev S.I. O'zbekistonda “paxta ishi” va “o'zbek ishi” kampaniyalarining boshlanishi hamda uning Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi // CyberLeninka. – 2020.
8. XX asr 90-yillarida teatr, kino va musiqa san'atining rivojlanishi. – URL: <https://oefen.uz/uz/documents/>
9. O'zbekiston madaniyatining 1927–1932 yillardagi manzarasi // Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – URL: <https://phoenixpublication.net/>
10. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayot va san'at. – URL: <https://arxiv.uz/>